

DUGOH HUSAYNIY

O'g'iloy Bozarboy qizi Teshaboyeva

Andojon davlat pedagogika insituri

Ijtimoi va gumanitar fanlar fakulteti

Musiqiy ta'lim yonalishi 102 gurih

Anatatsiya:Maqaom Shashmaqom va Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari tarkibiga kiruvchi “Dugoh” va “Husayniy” ladlarining yaxlitligi haqida soz yuritilgan.

Kalit so'zlar: Shashmaqom , Dugoh, Husayniy, Duvazdahmaqom, Farg'ona – Toshkent maqomlari, lad.

DUGOH AND HUSSAINI

Abstraet: The article talks about the integrity of the “DUGOH” and “HUSAYNI” roads , wihich are part of the Shashmakom and Fergana – Tashkent highways.

Keywords: Shashmakom, Dugoh, Husayniy, Duvazdahmaqom, Fergana – Toshkent statuses , lad.

Bugungi kunda yurtimizda milliy musiqamizni ravojlantirishda turli hil ishlar olib borilmoqda. Hususan Prizidentimiz Shavkat Mirziyoye nutqlarida milliy musiqa madaniyatini asrab avaylash, ravojlantirish va uni dunyoga tanitish masalalariga alohida urg;u berib kelmoqda . Milliy musiqamiz xalqimizning asriy an'analari urf-odatlar va madaniy merosining ajralmas qismi ekanini ta'kidlab , uni kelgusi avlodga yetkazish zarurligini qayd etadi.Prizidentimizning nutqlari va qarorlaridagi asosiy jihatlar:

Milliy musiqa merisini tiklash: Prezidentimiz milliy musiqiy asarlarni tiklash, o'rganish va saqlash borasida ishlarni kuchaytirish kerakligini takidlaydi. Ayniqsa maqom san'ati, baxshichilik, doira, dutor kabi asriy san'at turlariga e'tibor qaratmoqda.

Xalqaro miqyosida tanitish: O'zbekistonning milliy musiqa an'alarini dunyo miqyosida tanitmoqda. Jumladan Buxoroda 2018 yilda tashkil etilgan Xalqaro maqom san'ati anjumani milliy musiqamizni jahon sahnasiga olib chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Maqom san'ati va baxshichilikni rivojlantirish: Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan maqom va baxshichilik san'atiga oid maxsus markazlar tashkil etilib, ushbu sixalarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Maqom san'ati UNESCOning nomoddiy madaniy meros royxatiga kiritilgan.

Prezidentimizning nutqlarida milliy musiqa xalqimiz ma'naviy boyligi ekan, uni zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish orqali yosh avlodni milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim vazifa sifatida belgilangan.

O'rta asrlardan bo'ishlab yaqin va O'rta sharqda "Duvozdahmaqom" -12 maqom turkumi keng tarqalib, musiqa amaliyotida shakillanadi va qollanib kelinadi. Bu bebaho mumtoz musiqa shakli keyinchalik bir qator Sharq mamlakatlarining musiqiy merosida o'z ananalari negizida yuzaga kelib xalqlarning mumtoz musiqasi sifatida amaliyotga kirib keldi. Xalq professional bastakorlik an'alaridab yuzaga kelgan ushbu san'at xar bir xalqning milliy an'alarinio'zida mujassam etganligi bilan xarakterlanadi.

Manbalarda bayon etilishicha 18 asrning oxiriga kelib, Buxoroda maqom turkumlari bolmush – "Buxoro Shashmaqomi" uzil-kesil shakillangan.19 asrda "Xorazm maqomlari" turkimi va Farg'ona Toshkent maqom yollari ham o'zbek maqomlarining vohaviy namunalari sifatida vujudga keladi.Keyinchalik "Shashmaqom" va boshqa turkumlar asosida maqom asarlarning yangi uslublari

vakorinishlari zamonaviy talqinda rivoj oladi. Fartg'ona – Toshkent maqom yo'llarida ham yuzdan ortiq bastakorlar ijod namunalari yaratilgan. Qayd etish joizki maqom ijidiyoti xalqimizning milliy qadiryatlari va an'analri negizida o'zbekona jihatlar bilan sog'orilgan holda ijod etilib kelgan. Ularning har biri turli turkumlarda ijod etilgan bolib , namunalar avvalo o'ziga hoslikka ega bo'lsa , ularning tarkibida boshqa namunalarning ham turli jihatlarini o'ziga xos ifodasini topganligi bilan ajralib turadi. Har bir maqom namunalarining betakror ohanglari va musiqiy mavzulari o'zining mazmuni va ohang mag'ziga egaligi bilan axamiyatlidir. Dugohmi, Segohmi, Navo yoki Iroqmi ham bir ozining mavzu mag'zi va ohang jozibasiga egadir. Ushbu maqola orqali biz Farg'ona – Toshkent maqom yollari tarkibiga kirgan “Dugoh Husayniy” lar haqida fikrlarimizni bayon etmoqchimiz.

“Dugoh Husayniy” Farg'ona – Toshkent maqom yo'llarning asosiy tarkibiga kiruvchi Bayot , Chorgoh, Shahnozi gulyor maqom yo'llaridan biridir. O'zbek maqomlari orasida Dugoh maqomi o'ziga xos va asosiy maqomlardan biri sifatida turkumlar o'rin olgan. O'zining parda turkumi, ohanggi, harakteri hamda mavzusi bilan boshqa maqomlardan ajralib turadi. Farg'ona – Toshkent maqom yollariga mansub bo'lgan Dugohlar , Shashmaqomdagi Dugohning tuzilishiga shaklan oxshab ketgani bilan, oziga xos tomonlari mavjudligi bilan ajralib turadi.

Odatda har bir maqomning o'zining mavzusi va asoslanadigon pardalar tovushqatori mavjudligi xususida nazariy ma'lumotlar berilib o'tilgan . Ijrochilik amalyotining maqomlarga xos bo'lgan mukammal talqinlarida bu jihatlar o'zini namoyon etib turadi. Shunga ko'ra bunda Farg'ona – Toshkent maqom yo'llariga mansub bo'lgan turk um “Dugoh Husayniy” deb nomlanib kelgan. Avvalo buning negizida tovushqator parda tizimida Dugoh pardalariga nisbatan boshqa bir parda ishlatilganligi e'tirof etiladi. Demak Farg'pna – Toshkent maqom yollaridagi Dugoh namunasi oziga hoslik jihati, unda Husayniy pardasi qo'llanilganligidadur. Dugoh ikkinchi pardasidan Husayniy pardasi kelganligi uchun “Dugoh Husayniy “ nomini oldi. Shu o'rinda Dugoh pardasigaham to'xtalib o'tsak .Dugoh iborasi fors tilidan

olinib , tovush xosil qilinadigon parda ma'nosida qo'llaniladi. Shu bois asosiy pardalardan biri o'zgarishi ushbu maqomning shunday atalishiga asos bo'ladi.

Farg'ona – Toshkent maqom yo'llaridagi “Dugoh Husayniy”lar maqom shaklidagi bir tizim deb qarashimiz uning I-VII gacha boi'lgan taronalarni o'zida ask ettirganligidir. Shashmaqom tarkibiga qiyoslasak, Buxoro maqomlarida ijrochidan keng ko'llamli ovoz xajmi talab etilganligi bois ansambil bo'lib ijro qilinsa , Farg'ona – Toshkent maqom yo'llaridagi asarlar kichikroq hajmda yaratilgan bo'lib , yakka tarzda ijro qilish imkoniyatini beradi. “Dugoh Husayniylar” lar kichikroq ixcham shakilda yaratilgan go'zal va betakror asarlar sarasidan. Shuning uchun ham koplav san'atkorkar ijro dasturlaridan joy olgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

“Dugoh Husayniylar” lar o'ziga hos asarlar turkumidir. Uning o'ziga hosliklaridan biri shundakin , hamma Dugoh Husayniylar bitta tovush tizimida ijro etiladi. Yana e'tiborli tarafi shundaki “Husayniy “ ladi “Navrozi sabo” da ham uchraydi va “Dugoh Husayniy “ ga juda yaqin jihatlarini ko'rishimiz mumkin . Shuning uchun ham Ba'zi manbaalarda "Sabo" pardasi ham deb yuritilgan.

"Husayniy " oladi o'zining nafisligi va kishiga ta'sirchanligi bilan ajralib turadimi va asarda alohida xarakterli jihatlarini ko'satib beradi. Yana shuni aytish joizki maqomlar ichida mumtoz she'riyatimiz vakillarining g'azallariga eng ko'p qol urilgan asalar "Dugoh Husayniy" lardir. Izlanishlar natijasida "DUGOH Husayniy I" eng ko'p so'zari almashinib kelingan asar bo'lib bizga ha mumtoz g'azallarimizdan 10ga yaqin namunalariga aytilgan ustozlarning nodira ijrolari yetib kelgan.

Asosan Farg'ona - Toshkentda vohasining yetuk vakillari Mamadbobo Sattorov, Bolta Hofiz, Joraxon Sulstonov, Mamurjon Uzoqov, Rasulqori Mamadaliyev, Orifhon Hotamov, Hakimjon Fayziyevlar qolaversa Berta Davidova, Saodat Qobulova, Mastona Ergasheva va Munojat Yo'lchiyevalar ijrosida go'zal va mukammal ijrolari tinglashimiz mumkin.

Bundan ko'rinib turiptiki "Dugoh Husayniy" qanchalar xalqchil, ommalashgan, ixcham xajimli bo'lgani bilan nafis va nozik pardalar yaqqol jilolanadi va biz bu ohanglarni yuqorida keltirib o'tgan ustozlarning Ijrolari da ko'rishimiz mumkin.

Kelgusida biz yoshlarushbu meroslarimizni go'zal holatda saqlanishi uchun, tub mohiyatni anglagan holda ijro etib, ustozlarning ijro an'analarini kelgushi yosh avlodlarga yetkazishda o'z xissamizni qo'rishimiz ayni muddaodir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. O'zbeknashir, 1963.

2 Otanazar Matyoqubov. Maqomot. Musiqa nashryoti, 2004.